

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsija etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

E.Bozorov, M.Axmadjonov

Tibbiyot elektronikasi fanining samaradorligini oshirishida “hamkorlikda” o’qitish texnologiyasining o’rni 233

N.Abdukarimova, Sh.Shuxratov

Texnik mexanika fanini texnologik ta’lim yo’nalishida o’qitish uslubiyoti 238

N.Raxmatova, Sh.Shuxratov

Texnologiya ta’limida innovatsion yondoshuv asosida o’quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish 242

B.Mamatojiyeva, Sh.Shuxratov

Yog’och materiallaridan murakkab bo’lмаган detallar va buyumlar tayyorlash texnologiyasi 248

Sh.Ashirov, D.Mirzayev

Akademik litseylarda fizika fanini o’qitishda integrativ darslar mazmunini takomillashtirish 253

KIMYO

D.Abbasova, A.Ibragimov, O.Nazarov

Ephedra Equisetina bunge o’simligidan ajratib olingan efedrin alkaloidi 257

M.Ismoilov

Qatronlar va neft kislotalari uchun adsorbentlar 262

N.Dexkanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,

Nax seolit vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi 267

H.Qurbanov, M.Rustamov, D.Gafurova, M.Mirzoxidova

Poliakrilonitril asosida yong’inga chidamli polimer mato olish 274

I.Asqarov, M.Akbarova, Z.Smanova

Qon bosimining oshishi kasalligida ishlataladigan sintetik dorilarning inson organizmiga ta’siri 279

I.Askarov, N.Tulakov, Z.Abduraimov, N.Islamova

1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamid sintezi 283

H.Rahimova, A.Ibragimov

Phlomoides Canescens o’simligining uchuvchan moddalarini tadqiq etish 289

N.Qutlimuatov

Mahalliy xomashyolar va chiqindilar asosida olingan anionitning kimyoviy barqarorligi va sorbsion xossasi 293

M.Jo’rayev, S.Xushvaqtov

Polivinilxlorid plastikat asosida olingan sorbentning fizik-kimyoviy xossalari 299

I.Askarov, G’.Madrahimov, M.Xojimatov

O-ferrotsenil benzoy kislotasini ayrim hosilalarining biologik faolligini o’rganish 304

S.Mukhammedov, I.Askarov, Kh.Isakov, M.Mamarakhmonov

Furfurolidenkarbamidning elektron tuzilishi va kvant-kimyoviy xisobi 308

O.Tursunmuratov, D.Bekchanov

Vermikulit asosida olingan yangi ionitga Cu^{2+} ionlarining sorbsiya kinetikasi va izotermasi 311

M.Ismoilov

Karaulbozor neft fraktsiyalarini tahlili 315

M.Axmadaliyev, N.Yakubova

Ishqoriy muhitda furfurolning kondensatsiyalanishi 322

B.Nu’monov

Fosforkislotali-gipsli bo’tqasini koversiyalash asosida kompleks o’g’itlar olish 328

Sh.Yarmanov, S.Botirov, D.Bekchanov

Tabiiy polimerlar asosida biosorbentlar olinishi va qo’llanilishi 335

G’.Xayrullayev, Sh.Kadirova, B.Torambetov, S.Botirova, Sh.Mavlonova

3,3'-disulfanidilbis (1h-1,2,4-triazol-5-amin) sintezi 341

GEOGRAFIYA

Y.Axmadaliyev

Mahalliy aholining shaharsozlik an’analardida landshaft omilining o’rni 346

K.Boymirzayev, H.Naimov

Farg’ona botig’i yoyilma landshaftlarining geografik o’rganilishi va tadqiq etilishi 352

**МАХАЛЛИЙ ХОМАШЫОЛАР ВА ЧИҚИНДИЛАР АСОСИДА ОЛИНГАН АНИОНТИНГ
КИМЫОВИЙ БАРҚАРОРЛЫГЫ ВА СОРБСИОН ХОССАСЫ**

**ХИМИЧЕСКАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ И СОРБЦИОННЫЕ СВОЙСТВА АНИОНITA НА
ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ И ОТХОДОВ**

**CHEMICAL STABILITY AND SORPTION PROPERTIES OF ANIONITE BASED ON
LOCAL RAW MATERIALS AND WASTE**

Qutlimuratov Nurbek Matkarimovich¹

¹Qutlimuratov Nurbek Matkarimovich

–Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant.

Annotatsiya

Ushbu maqolada polivinilxlorid(PVX)ni tarkibida monoetanolamin saqlagan chiqindi mahsuloti bilan kimyoviy modifikatsiya qilib, yangi turdagı anionitning olishning maqbul sharoitdlari, olingen anionitning kimyoviy barqarorligi hamda turlu konsentratsiyali sun'iy eritmalaridan KMnO₄ ionlariningturlu haroratda sorbsiyasi o'rganish natijalari keltirilgan. Jarayonlarning muvozanat holatidagi adsorbsiya mexanizmini ifodalash izoterma modellaridan foydalanildi. Olingen natijalar asosida hisoblab topilgan Lengmyur izoterma modeli bo'yicha q_{\max} = 125 (293K) mg/g, bu esa polivinilxlorid hamda chiqindilar asosida tarkibida azot saqlagan yangi ionitga MnO₄⁻ ionlarini yuqori darajada sorbsiyalashini ko'rsatadi.

Аннотация

В данной работе представлены результаты химической модификации поливинилхлорида (ПВХ) моноэтаноламин содержащим отходом, оптимальные условия получения анионита нового типа, химической стабильности полученного анионита и сорбции KMnO₄ ионы при различных температурах. Для представления адсорбционного механизма равновесных процессов использовались изотермические модели. По модели изотермы Ленгмюра, рассчитанной на основании полученных результатов, q_{\max} = 125 (293K) мг/г, что свидетельствует о высокой сорбции ионов MnO₄⁻ новым ионитом.

Abstract

This paper presents the results of the chemical modification of polyvinyl chloride (PVC) with monoethanolamine-containing waste[1,1231-1236b], the optimal conditions for obtaining a new type of anion exchanger, the chemical stability of the obtained anion exchanger, and the sorption of KMnO₄ ions at various temperatures. Isothermal models were used to represent the adsorption mechanism of equilibrium processes. According to the Langmuir isotherm model calculated on the basis of the obtained results, q_{\max} = 125 (293K) mg/g, which indicates a high sorption of MnO₄⁻ ions by the new ion exchanger.

Kalit so'zlar: polivinilxlorid (PVX), ionit, kimyoviy barqarorlik, sulfat kislota, nitrat kislota, KMnO₄ ning sun'iy eritmalar va izoterma modellari.

Ключевые слова: поливинилхлорид (ПВХ), ионит, химическая стабильность, серная кислота, азотная кислота, искусственные растворы KMnO₄ и изотермические модели.

Key words: polyvinyl chloride (PVC), ionite, chemical stability, sulfuric acid, nitric acid, artificial solutions of KMnO₄ and isothermal models.

KIRISH.

Bugungi kunga kelib, antropogen omillarning keskin oshib borishi atrof-muhitning noorganik va organik moddalar bilan ifloslanishi asosiy ekologik muommolardan biridir. Bu tiriklik uchun juda katta xavf tug'diradi. Buning sababi ko'pchilik noorganik moddalar nisbatan elektorlit sanaladi va kam miqdorda bo'lsa ham suvda eriydi, atrof-muhitda to'planadi, natijada esa tirik organizmlarning o'zlashtirishi uchun qulay bo'ladi. Ayniqsa og'ir metall ionlari va kislota qoldiqlarining tirik organizmgaga kirishi juda salbiy oqibatlarga olib keladi. Og'ir metall ionlari va kislota qoldiqlari noorganik ifloslantiruvchi moddalar sifatida biologik parchalanmaydi. [2-3, 94-104, 418-428, 39-b]. Bundan tashqari atrof-muhitni zaharli metallar bilan ifloslanishida antropogen omillarni o'rni beqiyos, ko'plab sanoat korxonalari, gidrometallurgiya sanoati faoliyati, bo'yoq mahsulotlarini ishlab chiqarish, neft-gaz, qishloq xo'jaligi chiqindilari natijasida yuzaga kelmoqda [4, 793-807 b.]. Ko'pgina sanoat tarmoqlaridan chiqadigan oqova suvlar tarkibida turli xil og'ir metallarning

ko'pchiligin uchratish mumkin. Ayniqsa Co(II), Cu(II), Ni(II), Zn(II), Cr(VI), Mn(VII), Mn(VI) As(V) va b. kabi ionlarning bunday suvlardagi konsentratsiyalarining oshishi tirik organizmlar uchun juda ham zararli ta'sir ko'rsatmoqda [1,1231-1236 b;].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Sorbsiya usullarida ishlataladigan moddalar yuqori sirt yuzali, molekulalarni (suyuq yoki gazsimon agregat holatdagi) hamda turli xildagi ionlarni o'zining yuzasida bog'lash qobiliyatiga ega, g'ovaklik darajasi yuqori, mexanik mustahkamlikka ega bo'lgan sorbnetlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Sorbentlar odatda iflosantiruvchi moddalarni atrof-muhitdan immobilizatsiya qilish va olib tashlash uchun ishlataladi[6]. Ko'p hollarda ularni qayta ishslash yoki adsorbsiyalangan moddani ulardan qayta ajratib olish imkonini yaratadi.

Polivinilxlorid (PVX), eng mashhur va keng tarqalgan polimer, ko'p qirrali polimerlardan biridir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2001 yilda dunyoda yiliga 31 million tonna PVX ishlab chiqariladi va 2030 yilga kelib dunyoda PVX ishlab chiqarish yiliga 59,7 million tonnaga yetishi proqnoz qilinmoqda. [7; 578-586-b.] Shuningdek, PVX o'ziga xos kimyoviy xususiyatlarga ega, shuningdek, ion-almashinuvi va membrana materiali sifatida foydalanish uchun mexanik hamda termik barqarorlikka ega bo'lgan ko'p miqdorda ishlab chiqariladigan va nisbatan arzon polimerdir. [8; 23-35-b.]

PVX ning ba'zi qulay xususiyatlari quyidagilardir: granulalar kattaligi, pylonka shakllanishi, erituvchilar, asoslar va kislotalarga yuqori qarshilik, turli xil organik erituvchilarda yaxshi eruvchanligi va uzoq muddatga chidamli polimerdir. Bundan tashqari iqtisodiy jihatdan PVX ion-almashtiruvchi material va membranalarni ishlab chiqarish uchun juda qulay polimer sifatida qaralishi mumkin. [9; 397-402-b.]

PVX tarkibida faol xlor atomlarining mavjudligi uning kimyoviy modifikatsiyalashda noqulaylik tug'diradi. Xlor atomlarini almashtirish orqali PVXni o'zgartirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar o'zini oqladi. Ko'p sonli molekulyar va makromolekulyar o'rinnbosarlar ma'lum va tegishli organik reaksiyalardan foydalangan holda biriktirilgan. [10; 217-244-b.] PVX ning kimyoviy modifikatsiyalari yarim asrdan ko'proq vaqt oldin boshlangan va o'rganilgan. Uning qo'llanilishiga tegishli materialning o'ziga xos xususiyatlari tufayli PVXning kimyoviy funksionalligi doimiy ko'rinadi.

Sanoat miqyosida o'rganilayotgan ion almashinuvchi materiyallarning eng muhim jihatlardan bittasi bu sintez qilingan ionitning kimyoviy barqarorligi va sorbsion xossasi sanaladi. Ushbu ishda ma'lum darajada sorbentning ayrim xossalari o'rganildi. Yangi sintez qilingan anionitning kimyoviy barqrarligini bilish maqsadida turli xil konsentratsiyadagi kislota hamda asoslardan foydalanildi. Sorbentning statik almashinuv sig'imi(SAS) ga o'zgarishiga qarab kimyoviy barqororlik to'g'risida xulosa qilindi. Bundan tashqari maxalliy xomashyolar va chiqindilar asosida olingan ionitga $Mn^{O_4^-}$ ionlarining sun'iy eritmalarida sorbsiya jarayonining sorbsion xossalarni o'rganishda Lengmyur, Freyndlix, Temkin, Dubinin-Radushkevich va Flori-Xaggins izoterma modellaridan foydalanildi[11].

Ishda PVX va chiqindilar asosida olingan[1, 1231-1236b] yangi ionalmashinish xususiyatiga ega bo'lgan tarkibida azot saqlagan statik almashuv sig'imi HCl bo'yicha 3,8 mg•ekv/g bo'lgan ionitning kimyoviy barqarorligini o'rganish jarayoni sulfat hamda nitrat kislotalar va natriy gidroksid eritmalarida sinovdan o'tkazildi. Chunki sanoat miqyosida eng ko'p ishlataladigan va suv tozalashda qo'llaniladigan ion almashinuvchi materiallar eng kuchli kislota va asoslar ta'siriga barqaror bo'lishi lozim. Sorbentlar kislotalar va ishqorlarga barqaror bo'lmasa uni sanoat miqyosida qo'llab bo'lmaydi. Shularni inobatga olgan holda sintez qilingan ionitlarning kislota va asoslarga barqarorligi, Sorbentning SAS qiymati o'zgarishiga qarab baholandi. Nitrat va sulfat kislotalarning 1% li hamda 5% li eritmalaridan 50 ml olinib ularning har bittasiga sintez qilingan sorbentdan 0,5g dan solinib 48 soat davomida qoldirildi. Kislotalarda qoldirilgan sorbentning SAS qayta hisoblab ko'rildi. Natriy gidroksidning 5% li eritmasidan 50 ml olindi va 0,5g sorbent solindi hamda 10 soat davomida 95°C da qizdirildi. Ishqorda qizdirilgan sorbentning kimyoviy barqarorligi SAS orqali baholandi. Keyin esa ionitdan 5 g/l miqdordi $Mn^{O_4^-}$ ionlari saqlagan har xil (aniq konsentratsiyali) sun'iy eritmalaridan 100 ml olib, 293K, 303K va 313K haroratlarda, muvozanatga kelguncha sorbsiya jarayonining sorbsion xossalari o'rganildi. Sorbsiya jarayonidan oldingi va keyin

KIMYO

eritmadagi Mn(VII) ionining konsentratsiyasini o'zgarishi Spektrofotometr (EMC-30PC-UV Spectrophotometr) pribori yordamida optik zichligining o'zgarishiga qarab, hisoblab topildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Spektrofotometrda Mn(VII) ionlarining turli xil konsentratsiyalarinining o'zgarishi optik zichlik orqali quyidagi (1) tenglama asosida hisoblanadi:

$$A = C \cdot s \cdot l \quad (1)$$

Optik zichlik konsentratsiya funksiyasi $A=f(C)$, ekanligidan quydagicha (2) tenglama orqali hisoblash mumkin:

$$S_{keyingi} = \frac{C_{dastlabki} \cdot A_{keyingi}}{A_{dastlabki}} \quad (2)$$

Sorbsiya miqdori quyidagi(3) formula orqali hisoblandi:

$$q_e = \frac{(C_0 - C_e)}{m} \times V \quad (3)$$

Bunda: q_e -ionita yutilgan ionni miqdori mg/g, C_0 - ionning dastlabki konsentratsiya mg/l, C_e - ionning muvozanat konsentratsiyasi mg/l; V –eritma hajmi (l); m - quruq sorbent massasi(g).

Lengmyur izotermasi modelida asosiy Lengmyur formulasi quyidagi(4) tenglama bilan ifodalanadi.

$$q_e = q_{\max} \frac{K_L C_e}{1 + K_L \cdot C_e} \quad (4)$$

Bu yerda: q_{\max} – ma'lum massali sorbenta yutilgan metalning maksimal miqdori (mg/g). q_{\max} va K_L qiymatlaridan ajratish koefitsenti (R_L)ni hisoblash mumkin. Muvozanat parametri R_L yordamida sorbat va sorbent o'rtaqidagi yaqinlikni taxmin qilish hamda jarayonning borishi haqida bilish mumkin

$$R_L = \frac{1}{1 + K_L \cdot C_n} \quad (5)$$

Bunga (4) ko'ra $0 < R_L < 1$ adsorbsiya jarayoni qulay, $R_L > 1$ noqulay, $R_L = 1$ adsorbsiya izotermasi chiziqli ko'rinishda deb hisoblanadi va $R_L = 0$ esa adsorbsiyani qaytmas bo'lislini ifodalaydi.

Freyndlix izoterna modeli asosiy formula quyidagi (6) tenglama bilan ifodalanadi:

$$q_e = K_F C_e^{1/n} \quad (6)$$

Freyndlix tenglamasi yordamida turli (ideal bo'limgan) eritmalarda boradigan sorbsiya jarayonlarini o'rganish mumkin. Ushbu modelning chiziqli tenglamasini quyidagi(7) ko'rinishda ifodalash mumkin.

$$\log q_e = \log K_F + \left(\frac{1}{n}\right) \log C_e \quad (7)$$

Temkin izoterma modelining chiziqli tenglamasini (8) quydagicha ifodalanadi:

$$q_e = \frac{RT}{b_T} \cdot \ln K_T + \frac{RT}{b_T} \cdot \ln C_e \quad (8)$$

Dubinin-Radushkevich izoterma modelining chiziqli tenglamasini (9) quydagicha ifodlanadi:

$$\ln q_e = \ln Q_D - 2B_D \cdot RT \cdot \ln \left(\frac{1}{C_e} + 1 \right) \quad (9)$$

$$E = 1/\sqrt{2B_D} \quad (10)$$

Flori-Xaggins izoterma modelining umumlashgan va chiziqli tenglamalari (11-13) quyidagicha:

$$S_0 = \frac{\theta}{K_{FH} \cdot (1-\theta)^n} \quad (11) \quad \log \frac{\theta}{C_e} = \log K_{FH} + n \cdot \log(1-\theta) \quad (12)$$

ΔG_{ads} - Adsorbsiyalanish jarayonining erkin energiyasi. Ushbu tenglama adsorbsiya jarayonining erkin energiyasini hisoblashga (13) zamin yaratadi[4-11].

$$\Delta G = -RT \ln K_F \quad (13)$$

Olingan natijalar va muhokama

Olingan natijalar 1- hamda 2- jadvallarda keltirilgan


1-jadval. Anionit PVX-A-N-1ning kimyoviy barqarorligi

Muhit	Tadqiqot jarayoni		SAS, (HCl) mg•ekv/g		%
	Harorat, K	Soat	Boshlang'ich	Ohirgi	
Anionit PVX-A-N-1					
1%HNO ₃	298	48	3,2	3,2	100
5%HNO ₃	298	48	3,2	3,0	93,75
1%H ₂ SO ₄	298	48	3,2	3,2	100
5%H ₂ SO ₄	298	48	3,2	3,1	96,9
5%NaOH	373	10	3,2	2,0	62,5
5%NaOH	273	10	3,2	3,2	100


2-jadval. Anionit PVX-A-N-2ning kimyoviy barqarorligi

Muhit	Tadqiqot jarayoni		SAS,(HCl) mg•ekv/g		%
	Harorat, K	Soat	Boshlang'ich	Ohirgi	
Anionit PVX-A-N-2					
1%HNO ₃	298	48	3,8	3,8	100
5%HNO ₃	298	48	3,8	3,7	97,36
1%H ₂ SO ₄	298	48	3,8	3,8	100
5%H ₂ SO ₄	298	48	3,8	3,6	94,7
5%NaOH	373	10	3,8	2,2	57,9
5%NaOH	273	10	3,8	3,8	100

Polivinilxlorid (PVX) va chiqindilar asosida olingan, kuchsiz asos xossasini namoyon qiluvchi ionitga turli konsentratsiyali sun'iy eritmalardagi Mn^{IV} ionlarining sorbsiyasi 293K haroratda adsorbsiya jarayonining muvozanat holatidagi izoterma jarayonlarini o'rGANISH natijalari quyidagicha bo'ldi:


Barcha izoterma modellarining grafiklari

Lengmyur izoterma modeli




Freyndlix izoterma modeli


KIMYO



Temkin izoterra modeli



Dubinin-Radushkevich izoterra



Flori-Xaggins izoterra modeli

Yuqoridagi izoterra modellar asosida tuzilgan grafiklarridan quyidagi natijalar olindi:

MnO₄⁻ ionining yutilish izotermasi

No	Izoterra parametrlari	Qiymatlar	Birlikler
Lengmyur izoterra modeli			
1.	q _{max}	125	mg/g
2.	K _L	0,862	
3.	R _L	0,03<	Qulay
4.	R ²	0,9999	
Flori-Xaggins izoterra modeli			
5.	N	2,8057	
6.	K _{FH}	7352	
7.	ΔG _{ads}	-22,057	kJ/mol
8.	R ²	0,97	
Freyndlix izoterra modeli			
9.	1/n	0,5247	
10.	n	1,9	
11.	K _F	3,87	L/g
12.	R ²	0,943	
Temkin izoterra modeli			
13.	K _T	0,191	L/g
14.	B _T	96,81	J/mol
15.	R ²	0,995	

Dubinin-Radushkevich izoterma modeli				
16.	Q_D	165,4	mol/g	
17.	B_D	0,00629	$\text{kJ/mol}\cdot\text{K}$	
18.	E	8,91		kJ
19.	R^2	0,944		

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy homashyo va chiqindilar asosida olingen ionitlarning kuchli kislotalar (HNO_3 va H_2SO_4)ning 1% li hamda 5% li eritmalariga nisbatan kimyoviy barqaror ekanligi tajriba orqali isbotlandi. Sorbentning SAS(stik almashinuv sig'imi) deyarli o'zgarmaganligini ko'rishimiz mumkin. Ishqorning qaynoq eritmasiga nisbatan beqororligini SAS miqdorining keskin pasayganligini hamda sorbentning massa kamayishini 1- va 2-jadvallardan xulosa qilishimiz mumkin. Mahalliy homashyo va chiqindilar asosida olingen ionitlar kislotali muhitda hamda ishqoriy muhitda (313 K gacha haroratda) ishlatalish mumkinligini olingen natijalardan xulosa qilishimiz mumkin. PVX va chiqindilar asosida olingen, kuchsiz asos xossasini namoyon qiluvchi ionitga turli konsentratsiyadagi sun'iy eritmalardan Mn O_4^- ionlarining sorbsiya qonuniyatları o'rganilgan. Sorbsiya jarayonining muvozanati asosida adsorbsiya mexanizmini o'rganish uchun qo'llanilgan turli xil zamonaviy izoterma modellari Lengmyur, Flori-Xaggins, Freyndlix, Temkin va Dubinin-Radushkevich modellariga mos keldi $R^2(0,944-0,999)$. Lengmyur izoterma modeli bo'yicha $Q_{max} = 125 \text{ mg/g}$, R_L qiymatining barcha o'rganilgan konsentratsiyalarida 0,03-0,127 ega ekanligi sorbsiya jarayoni qulay bo'lganligidan dalolat beradi. Flori-Xaggins izoterma modeli bo'yicha $\Delta G_{ads} = -22,07 \text{ kJ/mol}$, Freyndlix izoterma modeli bo'yicha $n = 1,9$ sobrsiya qulay bo'lgan, Temkin izoterma modeli bo'yicha $B_T = 96 \text{ J/mol}$, Dubinin-Radushkevich izoterma modeli bo'yicha $B_D = 6,29 \cdot 10^{-3} \text{ kJ/mol}\cdot\text{K}$ va $E_a = 8,91 \text{ kJ}$ ekanligi kelib chiqdi.

ADABIYOTLAR

- Кутлимуратов Н.М., Бекчанов Д.Ж., Мухамедиев М.Г. Изотерма и кинетика сорбции ионов Cu (II) анионитами, на основе поливинилхлорида пластиката и отходов аминов используемых в газоочистке//Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2021. 8(86). URL:<https://7universum.com/ru/nature/archive/item/12160>
- Davron, B., Mukhtar, M., Nurbek, K., Suyun, X., Murod, J., 2020. Synthesis of a New Granulated Polyampholyte and its Sorption Properties. International Journal of Technology. Volume 11(4), pp. 794-803.
- Мухамедиев М.Г., Бекчанов Д.Ж. Новый анионит на основе поливинилхлорида и его применение в промышленной водоподготовке. Журнал прикладной химии. 2019. Т. 92. Вып. 11. Ст. 1401-1407.
- А.В.Лысенко «Фотометрические методы анализа» Курск-2016
- Qutlimuratov N.M., Tursunmuratov O.X., Bekchanov D.J. 2020-yil, 5-sont Polivinilxlorid Plastikati Asosidagi Anionitning Fizik-Kimyoviy Xossalari. ILMIY AXBOROTNOMA/ SAMARQAND .
- Keno David Kowanga and etc. Kinetic, sorption isotherms, psedo-first-order model and pseudo-second-order model studes of Cu (II) and Pb(II) using defatted Moringa oleifera seed powder. The Journal of Phytopharmacology 2016;5(2):71-78.
- Rahman M.S and Islam M.R. Effects of pH on isotherms modeling for Cu (II) ions adsorption using maple wood sawdust. Journal of Chemical Engineering, 2009;149: 273–280.
- Peter Lieberzeit | Davron Bekchanov| Mukhtar Mukhamediev Polyvinyl chloride modifications, properties, and applications: Review Polym Adv Technol. 2022; 1–12. wileyonlinelibrary.com/journal/pat © 2022 John Wiley & Sons Ltd. DOI: 10.1002/pat.5656
- Dada, A.O and etc. Langmuir, Freundlich, Temkin and Dubinin–Radushkevich, Isotherms Studies of Equilibrium Sorption of Zn^{2+} Unto Phosphoric Acid Modified Rice Husk/ IOSR Journal of Applied Chemistry (IOSR-JAC) ISSN: 2278-5736. Volume 3, Issue 1(Nov. – Dec. 2012), PP 38-45 www.iosrjournals.org.
- Ali Kara and Emel Demirbel Kinetic, Isotherm and Thermodynamic Analysis on Adsorption of Cr(VI) Ions from Aqueous Solutions by Synthesis and Characterization of Magnetic-Poly (divinylbenzene-vinylimidazole) Microbeads, Water Air Soil Pollut (2012) 223:2387–2403.
- T. Ravi and etc. Preparation and characterization of higher degree-acetylated chitosan-coated magnetic adsorbent for the removal of chromium (VI) from its aqueous mixture, J. APPL. POLYM. SCI.2017, APP.45878(1-16).